

BOSHLANG'ICH SINFLARDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA IMLO VA PUNKTUATSIYA MASHQLARINING O'RNI

Begmatova Ozoda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3- bosqich 7BT 23-guruh talabasi
ozodabegmatova67@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346345>

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish jarayonida imlo va punktuatsiya mashqlarining o'rni tahlil etilgan. Yozma nutqning shakllanishida imlo mashqlari orqali to'g'ri yozish, punktuatsiya mashqlari orqali esa mantiqan izchil fikrlash va ifodali yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan. Integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati, psixolingvistik asoslar hamda amaliy tavsiyalar ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, imlo, punktuatsiya, mashq, boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, integratsiyalashgan yondashuv.

Аннотация: В статье анализируется роль орфографических и пунктуационных упражнений в развитии письменной речи учащихся начальной школы. В формировании письменной речи выделены направления развития грамотного письма посредством орфографических упражнений, а также логически связного мышления и навыков выразительного письма посредством пунктуационных упражнений. Научно раскрыта важность комплексного подхода, психолингвистических основ и практических рекомендаций.

Ключевые слова: письменная речь, орфография, пунктуация, упражнения, начальное образование, грамотность, комплексный подход.

Abstract: The article analyzes the role of spelling and punctuation exercises in the development of written speech in primary school students. In the formation of written speech, the directions of developing correct writing through spelling exercises, and logically coherent thinking and expressive writing skills through punctuation exercises are highlighted. The importance of an integrated approach, psycholinguistic foundations and practical recommendations are scientifically revealed.

Keywords: written speech, spelling, punctuation, exercise, primary education, literacy, integrated approach.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki yozma nutq – bu o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi, til madaniyati va savodxonlik darajasini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi yozma nutq orqali o'z fikrini ifodalaydi, yozma muloqotga kirishadi va o'z bilimini amalda namoyon etadi. Shu bois, yozma nutqni shakllantirishda imlo va punktuatsiya mashqlarining o'rni beqiyosdir.

Ona tili darslarida o'quvchilarni to'g'ri yozishga, tinish belgilaridan o'rinli foydalanishga o'rgatish – ularning mantiqiy fikrlashini, estetik didini va mustaqil yozuv malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda imlo va punktuatsiya mashqlarini puxta o'qitish orqali yozma nutqning poydevori yaratiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ona tili darslarida



o'quvchilarda to'g'ri, ravon va ifodali yozish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichidir. Yozma nutqni rivojlantirish o'quvchilarning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, grammatik savodxonligi va nutq madaniyatini yuksaltirish bilan chambarchas bog'liq. Shu jarayonda imlo va punktuatsiya mashqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mashqlar orqali o'quvchilar til qonuniyatlarini ongli ravishda o'zlashtiradi, yozuvdagi aniqlik va ifodalilikka erishadi.

Yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchidan diqqat, tafakkur, kuzatuvchanlik va mantiqiy izchillikni talab etadi. O'quvchi yozma nutq orqali o'z fikrini bayon etar ekan, u har bir so'zning to'g'ri yozilishiga, gap tuzilishiga va tinish belgilarining o'rniga e'tibor qaratadi. Shu bois imlo mashqlari o'quvchini har bir so'zning yozilishini ongli ravishda o'rganishga, punktuatsiya mashqlari esa gapdagi mantiqiy aloqalarni aniqlashga o'

Imlo mashqlari o'quvchilarda to'g'ri yozuvni shakllantirishning asosiy vositasidir. Ular orfografik bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiiq etish imkonini beradi. Masalan, diktant, mustaqil yozuv, imloviy tahlil, xatolarni topish va tuzatish kabi mashqlar o'quvchilarning yozma savodxonligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, imlo mashqlari orqali o'quvchilar so'z tarkibini, qo'shimchalarning yozilish qonuniyatlarini, talaffuz va yozuvdagi farqlarni o'rganadi. Bu jarayon o'quvchilarda fonetik, morfologik va leksik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Puntuatsiya mashqlari esa yozma nutqni mantiqan izchil, ifodali va aniq qilishda muhim o'rin tutadi. Tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish o'quvchining fikrini o'quvchiga to'g'ri yetkazish vositasidir. Puntuatsiya mashqlari orqali o'quvchilar gapning grammatik tuzilishini, mazmuniy bog'lanishini anglaydilar. Nuqta, vergul, so'roq, undov, tire kabi belgilarni o'rganish natijasida ularning nutqi ifodali tus oladi. Ayniqsa, matn asosida tashkil etilgan punktuatsiya mashqlari o'quvchilarni o'ylashga, o'z fikrini yozma shaklda tartibli ifodalashga o'rgatadi. Imlo va punktuatsiya mashqlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni integratsiyalashgan holda o'qitish yuqori samaradorlikka olib keladi. O'quvchi so'zlarni to'g'ri yozish bilan birga, ularni mantiqan bog'laydi, gapning tuzilishiga qarab tinish belgilarini to'g'ri qo'yadi. Masalan, diktant yozish jarayonida o'quvchi nafaqat imlo, balki punktuatsiyaga ham e'tibor beradi. Bunday yondashuv o'quvchining yozma nutqini kompleks shaklda rivojlantirish imkonini yaratadi.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan olganda, yozma nutq o'quvchining tafakkurini faollashtiradi. L. S. Vygotskiy yozganidek, yozma nutq insonning ichki fikrlash jarayonini tashqi shaklda ifodalash vositasidir. Shu sababli yozma nutqni shakllantirish o'quvchilarda tahliliy fikrlash, mantiqiy izchillik va ifoda madaniyatini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar uchun imlo va punktuatsiya mashqlari nafaqat til qoidalarini o'rganish, balki tafakkur va diqqatni tarbiyalash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Imlo va punktuatsiya mashqlarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchi turli interfaol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. "Klaster", "Insert", "Zinama-zina", "Blits-savol" kabi metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, mashqlarni ko'rgazmali vositalar, jadval va multimediy texnologiyalari bilan boyitish ularning eslab qolish, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, imlo va punktuatsiya mashqlarini tizimli ravishda o'tkazish o'quvchilarda yozma savodxonlik, mantiqiy fikrlash, grammatik tafakkur va nutq madaniyatining yuksalishiga olib keladi. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, izchil va estetik ifoda etishni o'rganadilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy mashqlar, matn asosida ishlash, xatolar ustida tahliliy faoliyat orqali tashkil etishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda imlo va punktuatsiya mashqlari o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning tafakkurini faollashtiradi, diqqatni oshiradi, mustaqil fikrlash va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat savodli yozishni, balki fikrni mantiqan asoslashni, matnni izchil tuzishni, yozma nutqda uslubiy aniqlikka erishishni o'rganadilar. Imlo va punktuatsiya mashqlarini integratsiyalashgan, ijodiy va interfaol yondashuv asosida tashkil etish esa boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov, O. (2020). Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".
2. G'ulomova, M. (2019). Yozma nutqni shakllantirishda imloviy mashqlar tizimi. Toshkent: O'qituvchi.
3. To'xtayeva, D. (2021). Boshlang'ich ta'limda punktuatsiya mashqlarining o'rni. "Ta'lim va taraqqiyot" jurnali, №4.
4. Karimov, B. (2022). O'quvchilarda yozma savodxonlikni rivojlantirish metodlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Ushinskiy, K. D. (1989). Rodnoe slovo. Moskva: Prosveshcheniye.
6. Vygotsky, L. S. (1996). Thought and Language. Cambridge: MIT Press.
7. Shodmonova, N. (2020). Til o'qitish metodikasida integratsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU.
8. Ziyayeva, N. (2023). Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. Toshkent: TDPU.
9. Hasanov, R. (2021). Til o'qitish metodikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: "Yangi asr avlodi".